

Date: 19th December-2025

“QO‘RQMA” ROMANIDA QO‘RQUV MOTIVINING AKS ETISHI

Zarnigor Eshimova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani tahlilga olinib, undagi qo‘rquv, vahima singari motivlar aniqlangan. Qo‘rquv – badiiy matnda nafaqat psixologik kechinma, balki jamiyatning yashirin jarayonlari, tarixiy xotira jarohatlari va shaxsiy tanlovlarning murakkab chorrahasini ochib beradigan asosiy tushunchalardan biri ekanligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: motiv, qo‘rquv, vahima, hikoya, badiiy matn, zamon va makon, ramz.

Istiqlol davri o‘zbek nasrida badiiy izlanishlar ko‘lami sezilarli darajada kengayib, ijodkorlar diqqat markaziga nafaqat ijtimoiy-falsafiy muammolarni, balki shaxsning ma‘naviy-ruhiy olami, ong va ongosti jarayonlari bilan bog‘liq masalalarni ham faol olib chiqa boshladilar. Mazkur yo‘nalishda qo‘rquv motivi ham alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etib, u ko‘pincha tarixiy xotira jarohati, davr bosimi, ijtimoiy adolatsizlik, vijdon va mas‘uliyat bilan bog‘liq ichki ziddiyatlarni ochuvchi psixologik-kontseptual kategoriya sifatida talqin qilinadi. Natijada qo‘rquv, bir tomondan, shaxsni falajlovchi, ikkinchi tomondan esa uni o‘zligini anglash, haqiqatni izlash va ma‘naviy uyg‘onish sari undovchi ichki titroq vazifasini bajaradi. Bu tendensiya Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton hamda Javlon Jovliyev romanlari misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi: ularda davr va shaxs munosabatlari qirralari, inson ruhiyatidagi keskin tebranishlar, iztirob, vahima, qo‘rquv va xavotir kabi holatlar badiiy tahlilning markaziy obyektiga aylantiriladi.

Shaxs xarakteri va ruhiy dunyosini belgilovchi individual xususiyatlar ko‘p hollarda u yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitning shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir. Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida bosh qahramon – muhit bilan chatishib ketgan roviy obrazi sifatida tasvirlanadi; u go‘yo alahsirash holatida, hush va tush chegarasida mavjudlik kechiradi. Mazkur psixologik holat asarda qo‘rquv motivi (fenomeni) bilan bevosita tutashib ketadi: qo‘rquv bu yerda shunchaki emotsional reaksiya emas, balki davr bosimi, tarixiy xotira jarohati va shaxsiy qismatning iztiroblari bilan shakllangan ichki ruhiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Muallifning ichki kechinmalari va ruhiy g‘alayonlari roviyning idroki orqali badiiy ifoda topib, voqealar uning real ong holatida sodir bo‘layaptimi yoki tush manzarasimi – ko‘pincha buni aniq ajratish qiyinlashadi. Aynan shu noaniqlik qo‘rquv fenomenining poetik funksiyasini kuchaytiradi: qo‘rquv roviyning tafakkur oqimini parchalab, xotira va hozirgi zamon, real voqelik va tasavvur chegaralarini shartli ravishda buzadi; natijada psixologik taranglik va ichki ziddiyatlar kuchayadi. Asarda qismati bilan kurashayotgan, tarixiy jumboqlar bilan yuzlashayotgan, doimiy tug‘yonli tafakkur va ziddiyatli xayollar



Date: 19th December-2025

girdobida yashaydigan, ba'zan hikmatli, ba'zan esa aljirashga yaqin ohangda so'zlaydigan inson qiyofasi markaziy badiiy talqin darajasiga ko'tariladi. Shu tariqa "Qo'rqma"da qo'rquv motivi shaxsning ichki olamini ochuvchi, davr, inson va tarix munosabatlarini keskinlashtiruvchi hamda badiiy tafakkurning psixologik qatlamini chuqurlashtiruvchi ilm sifatida talqin etiladi.

"Qo'rqma" romanining poetik tuzilishi ko'pincha til vositasida to'liq bayon etilishi qiyin bo'lgan g'ayrishuuriy qatlamga mansub kechinmalar – oshkor bo'lmagan mayli-istaklar, iztiroblar, armonlar hamda ularni uyg'otuvchi qo'rquv, vahima (hadik, xavotir, tashvish) holatlarining badiiy tasvirlari asosida shakllanadi. Muallif g'ayrishuuriy jarayonlarni ifodalashda, adabiyotshunos M. Boboxonov qayd etganidek, "ong oqimi" usulidan samarali foydalanadi: mazkur badiiy vosita zamon va makon chegaralarini shartli ravishda buzib, taxminan bir asr avval Germaniyaga tahsil uchun ketgan o'zbek talabalari boshidan kechirgan voqealarni bugungi kun hodisalari bilan parallel yo'sinda yoritishga, shuningdek, kitobxon nigohini bir voqelikdan boshqasiga sezdirilmas tarzda ko'chirishga xizmat qiladi. Roman matnida borliqning turli unsurlari – manzara (peyzaj), makon tasviri (interer), mayda detal va belgilar – qahramon ongida uyg'onadigan qo'rquvli xotiraga ya'ni, vahimali eslash, ichki titroq, xavf sezgisi bilan hamohang tarzda tasvirga tortiladi: qahramon muayyan voqea sodir bo'lgan joyga go'yo "ko'chadi", "paydo bo'ladi", nigohi tushadi yoki xayolan qayta nazar tashlaydi. Natijada atrof-muhitni idrok etish markazi qahramon ongidan g'ayrishuuriy qatlamga siljigani, voqelik esa shu vahima va qo'rquv motivi orqali qayta qurilayotgani anglashiladi. Syujet markazida hali tug'ilmagan go'dakning taqdiri va kelajak hayotini izdan chiqargan dramatik hodisa turadi: Germaniyaga ta'lim olish uchun ketgan yigit-qizlarning sotib yuborilishida qahramonning katta bobosi Ko'lanka obrazining tutgan o'rni va hissasi roman voqealarining g'oyaviy-mazmuniy markazini belgilaydi. Garchi Ko'lanka obrazi matnda doimiy dinamik harakatda ko'rinmasa-da, qahramonda kuchayib borayotgan g'ayrishuuriylik va travmatik vahima, qo'rquv ta'siri sabab kitobxon uni syujet ortida turgan, qo'rquvni avloddan-avlodga ko'chiruvchi kuchli omil sifatida aniq ajratib oladi.

J. Jovliyev roviy psixikasiga xos xususiyatlarni uning ichki kechinmalari, xulq-atvori hamda boshqa personajlar bilan muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan munosabatlar to'lqini orqali ochishga intiladi. Roman voqealari roviyning dunyoga kelishi tasviri bilan boshlanadi. Tug'ilish bir tomondan borliqni larzaga soluvchi hodisa sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan kipriklar orasidan ko'rinadigan tong shu'lalaridek sokin, hayotning ilk nafasi singari beg'ubor bir mo'jiza tarzida poetiklashtiriladi. Inson dunyoga kelishi bilan unga "in'om etilgan" taqdir charxpalagida umrining muayyan pallasigacha goh isyon, goh itoat holatiga o'tishga mahkum bo'lishi ta'kidlanadi. Ayni jarayon qahramon ruhiyatida hadik, xavotir va ichki vahima holatlarining paydo bo'lishi uchun psixologik zamin yaratadi.

Asardagi bosh qahramon hayotning osoyishta oqimida yashamaydi. Asardagi dramatik vaziyatlar, fojeaviy qismatlar va turli ziddiyatlar uning ichki olamiga bevosita bosim o'tkazadi. Chunki u o'z davrining ajralmas bo'lagi sifatida bu hodisalarga loqayd



Date: 19th December-2025

bo'lib qolish imkoniga ega emas, aksincha, voqelikning keskinligi qahramonda doimiy xavf sezgisini kuchaytirib, ong ostida yashirin qo'rquv mexanizmlarini faollashtiradi. Muallif qahramon ruhiy dunyosidagi tebranish va siljishlarni, avvalo, ichki nutq ko'rinishidagi monologlar orqali, shuningdek, dialoglar vositasida ham badiiy aks ettiradi. Bu jarayonda qo'rquv motivi ko'pincha bevosita nomlanmaydi, balki ichki nutqning uzilishlari, psixologik zo'riqlash va o'zini taftish qilish (o'z-o'zini so'roq qilish) shaklida bilvosita namoyon bo'ladi.

Asarning ilk parchasidanoq qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali uning ruhiy holatini ko'rsatishga urinish seziladi. Yozuvchi tug'ilgan zahoti o'zini taftish etuvchi, ruhan ezilgan roviy obrazini badiiy shartlilik tamoyillari asosida quyidagicha tasvirlaydi: "Bexabar eding-da, o'qiyolmas eding qonsiz va rangsiz, irigan piyozday yumshoq peshonamga yozilgan qarg'ishni shu on"²¹. Darhaqiqat, yangi tug'ilgan chaqaloqning qonsiz, rangsiz ko'rinishi tabiiy holatdir. Biroq muallif "irigan piyozdek yumshoq" qiyosini aynan peshonaga nisbat berar ekan, bunda muayyan badiiy niyat, falsafiy yuk hamda shartlilik mujassamligi ko'zga tashlanadi. Bu detal roviyning endigina tug'ilish onidayoq taqdirning og'irligini his etish, ya'nikelajakni vahimali tusda sezish holatini yanada kuchaytiradi.

Ma'lumki, xalqona tasavvur va badiiy an'anada inson qismati peshonasiga bitilgan deb qaraladi. Shu bois mazkur lavha kitobxonni roviyning kelgusidagi hayot yo'liga oid voqeliklarni oldindan his qilish hamda ishora sifatida ham tushunish, badiiy detal tafakkurni fojeaviy, ziddiyatli va xavf-xatar bilan to'yingan istiqbol sari yo'naltiradi. Qahramon ulg'ayib borgani sayin, uning ruhiy olamida kechadigan jarayonlar tobora keskinlashib, ichki ziddiyatlar kuchayadi, natijada qo'rquv motivi qahramon ongida nafaqat vaziyatga bog'liq, balki shaxsiyatni belgilovchi barqaror psixologik kechinma doimiy hadik, xavotir va vahima shaklida taraqqiy etib boradi.

J.Jovliyev romani orqali shiddatli global jarayonlar sharoitida yoshlarni turli yot g'oya va ta'sirlardan asrash oson emas, biroq o'tmish talabalari qalbidagi Vatanga muhabbat, yuksak ma'naviyat va fidoyilik tuyg'ularini zamonaviy avlod qalbida ham uyg'ota olish – qo'rquvni ma'rifat bilan yengishning eng muhim yo'li sifatida ilgari suriladi. Roman qahramonlari faoliyati zahirida ham aynan shu ulkan g'oya – qo'rquvni anglash, uni yengish va tarixiy xotira sabog'i orqali kelajakni ma'naviy tayanch bilan mustahkamlash tizimini mujassam qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jovliyev J. Qo'rquv. – Toshkent: Nihol nashriyoti, 2020. – 337 b.
2. Аристотель. Риторика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2018. – 360 б.
3. Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 504 б.

²¹ Jovliyev J. Qo'rquv. – Toshkent: Nihol nashriyoti, 2020. – 337 b.

